

## **“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:**

### **31-mavzu: “Milliy o‘zlik”**

---

**Annotatsiya:** Mazkur dars 9-11-sinf o‘quvchilarida milliy o‘zlik tushunchasining mazmuni, uning tarixiy, ma’naviy, ijtimoiy va tarbiyaviy asoslari haqida chuqur va tizimli tasavvur hosil qilishga qaratilgan. Dars davomida o‘quvchilarning o‘z millatiga mansublik hissi, tarixiy xotira, ona tiliga hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat va Vatan ravnaqiga daxldorlik tuyg‘ularini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Mashg‘ulot interfaol metodlar, tahliliy va mantiqiy savol-javoblar, guruhli va individual topshiriqlar, taqdimotlar hamda muhokamalar asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash, o‘z fikrini dalillar asosida bayon etish, milliy qadriyatlarga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

#### **Aniq maqsadlar:**

1. O‘quvchilarda milliy o‘zlikning mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari va shaxs hamda jamiyat hayotidagi o‘rnini chuqur anglashni shakllantirish, milliy mansublik, ona tili, tarixiy xotira, ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarning inson ma’naviy kamolotidagi ahamiyatini hayotiy misollar orqali tushuntirish;

2. Milliy o‘zlikka befarqlik, o‘z tarixini bilmaslik, ona tiliga loqayd munosabatda bo‘lish, begona g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona ergashishning salbiy oqibatlarini anglatish hamda o‘zligini yo‘qotmasdan zamonaviy hayotda yashash zarurligini dalillar, maqollar va real hayotiy misollar asosida ko‘rsatish;

3. O‘zbekiston jamiyatida milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, tarixiy merosni e’zozlash va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan tarbiyaviy yondashuvlar haqida aniq tasavvur berish, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tushuntirish;

4. O‘quvchilarda milliy o‘zlikka hurmat va sadoqat bilan munosabatda bo‘lish, ajdodlar merosini asrab-avaylash, uni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirish, o‘zining fuqarolik burchi va jamiyat taraqqiyoti uchun mas’uliyatni chuqur his etish hissini kuchaytirish hamda milliy g‘urur va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish.

#### **Asosiy g‘oyalalar:**

**Milliy o‘zlik** – insonning o‘z millatiga mansubligini anglashi, o‘z xalqining tili, tarixi, qadriyatlari, urf-odatlarini, ma’naviy merosi va ijtimoiy hayotiga daxldorligini his etishidir. U shaxsning tarixiy xotirasi, ma’naviy tayanchi va hayotiy yo‘lini belgilovchi ichki mezondir. O‘z milliy o‘zligini chuqur anglagan o‘quvchi ma’naviy yetuk, tafakkuri mustaqil, o‘zligini tanigan va kelajakka ishonch bilan qaraydigan shaxs sifatida voyaga yetadi.

## **Darsdan keyin kutiladigan natijalar**

### **1. Aqliy va tushunchaviy:**

O'quvchilar milliy o'zlik, milliy mansublik, tarixiy xotira, milliy qadriyat, ajdodlar merosi, fuqarolik mas'uliyati kabi tushunchalarni aniq farqlab, ularning shaxs kamoloti, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotidagi o'rnini izohlab beradilar.

“Milliy o'zlikka sadoqat” tushunchasining mazmunini tushunadilar: uni begona va zararli g'oyalarga ko'r-ko'rona taqlid qilish, befarqlik va tarixiy xotirani unutishga qarshi ichki ma'naviy hamda ongli pozitsiya sifatida sharhlaydilar.

O'z tarixini bilmaslik, ona tiliga beparvolik, milliy qadriyatlarga loqaydlik va o'zligini inkor etish kabi holatlarning shaxsiy ma'naviy rivojlanish hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sirini hayotiy misollar orqali asoslaydilar.

Milliy o'zlikni kundalik hayotda namoyon etish yo'llarini – ona tilini hurmat qilish, ajdodlar merosini o'rganish, milliy qadriyatlarga amal qilish, Vatan ravnaqi uchun mas'uliyat bilan yashash kabi jihatlarni to'g'ri talqin qiladilar hamda ularning barkamol shaxs shakllanishidagi ahamiyatini anglaydilar.

### **2. Hissiy va qadriy:**

Milliy o'zlikni anglashga, ajdodlar merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga va milliy qadriyatlarga sodiq yashashga nisbatan ichki ehtiyoj hamda ijobiy munosabat shakllanadi.

O'z xalqining tarixi, tili, urf-odatlarini va qadriyatlarini bilan faxrlanish orqali ma'naviy qoniqish va g'urur hissi kuchayadi, milliy o'zlikning qadri chuqur anglanadi.

Vatanga sadoqat, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni asrash va rivojlantirish istagi, befarqlik va ma'naviy loqaydlik bilan jamiyatga zarar yetkazmaslik mas'uliyati shakllanadi, o'zini “milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, ma'naviy yetuk avlod vakili” sifatida his etish rivojlanadi.

### **3. Amaliy ko'nikmalar:**

Kundalik hayotda milliy o'zlik va qadriyatlarga amal qiladi: ona tilida to'g'ri va ravon so'zlash, muomala madaniyatiga rioya etish, kattalarga hurmat, kichiklarga e'tibor ko'rsatish, milliy urf-odat va an'analarga ongli ravishda amal qilish.

Turli ijtimoiy va ma'naviy vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlash ko'nikmasi shakllanadi.

Begona ta'sirlarga tanqidiy yondashish, milliy qadriyatlarga zid bo'lgan holatlarga ongli munosabat bildirish, o'z pozitsiyasini madaniyatli tarzda ifodalash malakasi rivojlanadi.

O'z xulqi va munosabatlarini tahlil qilish, ma'naviy kamchiliklarni anglash va ularni bartaraf etishga intilish odati qaror topadi, milliy o'zlikni mustahkamlashga oid shaxsiy faoliyatini rejalashtirish va takomillashtirish malakasi rivojlanadi.

#### 4. Ijtimoiy-pedagogik:

- Sinfda milliy qadriyatlarga asoslangan sog‘lom ma‘naviy muhit shakllanadi: o‘zaro hurmat, hamkorlik, bag‘rikenglik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, madaniyatli muomala va adolatli munosabatlar kuchayadi.

- Do‘stlar, sinfdoshlar va o‘qituvchi bilan ochiq, ishonchga asoslangan muloqot hamda hamkorlik odatlari rivojlanadi, jamoa bilan ishlashda ma‘naviy mas‘uliyat, intizom va fuqarolik pozitsiyasi namoyon bo‘ladi.

- Guruhli ishlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar va rolli mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar milliy o‘zlikning ahamiyati va qadriyatlarini bir-biriga tushuntiradilar, ajdodlar merosini asrash va targ‘ib qilishda faol ishtirok etadilar.

O‘quvchilar jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti milliy o‘zlik, ma‘naviy birlik va o‘zaro hurmatga tayanishini anglaydilar, har bir ongli va mas‘uliyatli xatti-harakat umumiy rivojga hissa qo‘shishini tushunib, shu yo‘lda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga intiladilar.

**Metapredmet:** Turli fanlar hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llaniladigan umumiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. “Milliy o‘zlik” darsida ushbu yondashuv o‘quvchilarga milliy mansublik, tarixiy xotira, ajdodlar merosi, fuqarolik burchi va ma‘naviy qadriyatlarni fanlararo bog‘liqlik asosida anglash, tahlil qilish va kundalik hayotda qo‘llash imkonini beradi.

**Adabiyot.** O‘quvchilar milliy o‘zlik va ma‘naviyatga oid maqol, hikmatli so‘z va adabiy parchalarni topadilar. Masalan:

“Til – millat ko‘zgusi”.

“Ajdodini bilgan – o‘zligini biladi”.

“Vatanga muhabbat – iymondandir”.

Har bir maqol yoki hikmatning ma‘nosini 1-2 jumlada sharhlab, uni o‘z hayoti yoki jamiyatdagi real vaziyatlar bilan bog‘laydilar.

**Tarix.** Milliy o‘zlik shakllanishida muhim o‘rin tutgan tarixiy shaxslar, allomalar, jadid ma‘rifatparvarlari, davlat arboblari yoki tarixiy jarayonlar misolida o‘zlik, milliy ong va tarixiy xotiraning jamiyat taraqqiyotiga ta‘sirini tahlil qiladilar.

**Ona tili va muloqot.** Juftlik yoki kichik guruhlarda 60 soniyalik mini-nutq tayyorlaydilar:

“Milliy o‘zlik – mening hayotiy tayanchim”.

“Men milliy qadriyatlarni kundalik hayotda qanday namoyon etaman?”.

Nutq jarayonida ravonlik, madaniyatli muomala va dalillash ko‘nikmalari rivojlanadi.

**Tarbiya.** Milliy o‘zlikka befarqlik, tarixiy xotiraning sustlashuvi, ona tiliga loqaydlik, begona ta‘siriga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlarning shaxs, oila va jamiyatga salbiy ta‘sirini xarita (mind-map) shaklida tuzadilar. Shaxsiy “Milliy

o‘zligimni mustahkamlash qoidalari” ro‘yxatini ishlab chiqadilar – kamida 5 ta amaliy qoida. Masalan:

1. Ona tilimni hurmat qilaman.
2. Ajdodlar merosini o‘rganaman.
3. Milliy qadriyatlarga sodiq bo‘laman.
4. Vatan ravnaqi uchun bilim olaman.
5. Begona ta’sirlarga tanqidiy yondashaman.

Bu metapredmet yondashuvining qisqa namunasi.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

**Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

**Materiallar to‘plami:**

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

taqdimot.

## I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

*O'qituvchi sinfga milliy matolardan tikilgan libosda kirib keladi (yoki libosida milliylikka urg'u berilgan bo'lishi kerak).*

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Bugungi darsimiz mavzusi – milliy o'zlik. Bu tushuncha har bir inson uchun nihoyatda muhimdir. Chunki, inson avvalo o'zini kim ekanini, qaysi millat farzandi ekanini, qanday tarix, qadriyat va ma'naviy meros egasi ekanini anglasa, uning hayotga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi ham mustahkam bo'ladi.

Milliy o'zlik – bu o'z tilini hurmat qilish, o'z xalqining tarixini bilish, urf-odat va an'analarini qadrlash, ajdodlar merosiga sodiq bo'lish, Vatan ravnaqi uchun mas'uliyatni his etishdir. Milliy o'zligini anglagan inson o'zini yo'qotmaydi, turli yot g'oyalarga berilmaydi, aksincha, mustaqil fikr bilan yashaydi va jamiyatda o'z o'rini topa oladi.

Bugun tez o'zgarayotgan dunyoda yashayapmiz. Axborotlar oqimi kuchli, turli qarashlar, turli madaniyatlar bir-biriga aralashib bormoqda. Bunday sharoitda sizlar uchun eng katta tayanchlardan biri – bu o'zining milliy ildizlarini chuqur his qilishdir. Chunki ildizi baquvvat daraxtgina kuchli shamollarga bardosh bera oladi. Xuddi shuningdek, o'z milliy o'zligini anglagan inson hayot sinovlarida mustahkam turadi.

*Monitorga (yoki doskaga) surat chiqariladi.*



*Surat muhokama qilinadi. Bunda o'quvchilarning faolligini oshirishga e'tibor qaratiladi. Masalan, quyidagi savollar bilan.*

**O'qituvchi:** Suratda nimani ko'ryapsiz?

Siz uchun daraxtning ildiz (o'zlik) qismi nima? Hayotingizda nimalarni o'zingiz uchun ildiz (tayanch) deb bilasiz? Nima uchun?

Agar ildizlari bo‘lmasa, daraxtga nima bo‘ladi? Insonga-chi?

*O‘quvchilarning fikrlari tinglanadi.*

**O‘qituvchi:** Bugun biz “o‘zlik” haqida gapiryapmiz – ya’ni “men kimman?”, “qaysi jamiyatning bir bo‘lagiman?” degan savollarga javob izlaymiz. O‘zlik faqat ichki his emas, u biz yashayotgan davlat, undagi o‘zgarishlar va yaratilayotgan imkoniyatlar bilan ham bog‘liq.

Bugungi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan siz kabi yoshlarning bilimli, erkin fikrlaydigan va o‘z o‘rnini topgan shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun xizmat qilmoqda. Keling, shu o‘zgarishlarni yaqinroq ko‘rish uchun qisqa videoni tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

**Milliy o‘zlik – bizning ildizimiz!**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/535](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/535)

**O‘qituvchi:** Ko‘rdingizmi, bu islohotlarning markazida inson, ya’ni siz turibsiz. Bu imkoniyatlardan kim foydalana oladi? Albatta, o‘zini anglagan, maqsadini bilgan va jamiyatdagi o‘rnini tushungan inson. Endi keling, “o‘zlik” deganda aynan nimani tushunamiz, u qanday shakllanadi va nega u har birimiz uchun muhim – shu haqda birgalikda fikr yuritamiz.

## **II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar, bir daqiqa o‘ylab ko‘raylik: agar inson o‘z tarixini unutsa, o‘z tiliga befarq bo‘lsa, milliy qadriyatlarini qadrlamasa, u qanday kelajak sari qadam qo‘yadi? Yoki aksincha, o‘z ajdodlari bilan faxrlanadigan, Vatanini sevadigan, milliy g‘urur va milliy mas’uliyat bilan yashaydigan yosh qanday yutuqlarga erishishi mumkin?

Chunki Javohir kabi hayotda o‘z yo‘lini topgan va u yo‘lda yuksak yutuqlarga erishgan yoshlar milliy o‘zligimizning eng yorqin ifodasidir — ular nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga erishadi, balki butun millatning salohiyati, qadriyati va ruhiy kuchini dunyoga namoyon etadi.

Bu mavzuda har biringizning fikringiz muhim. Chunki milliy o‘zlik mavzusi faqat tarixiy yoki nazariy tushuncha emas, balki har birimizning kundalik hayotimiz, xulq-atvorimiz, tilimiz, muomalimiz va orzularimiz bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shunday ekan, keling, bugungi darsimizni faol fikr, samimiy munosabat va yuksak hurmat bilan boshlaymiz.

Aziz o‘quvchilar, siz tarix darslarida yurtimizdagi Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarida olib borgan tadqiqotlar, yurtimizda qadimdan shahar madaniyati yuksak rivojlangani haqida o‘qigan bo‘lsangiz kerak. Birgina Sopollitepa

madaniyati misolida o'zbek xalqining kelib chiqish tarixi bronza davriga borib taqalishi ilmiy asoslangan. Bu ilmiy, arxeologik o'rganishlarning muallifi akademik Ahmadali Asqarovdir.

Hozir sizlarga ushbu eng yoshi ulug' tarixchi, arxeolog akademigimizning sizlar uchun bergan maxsus intervyusini qo'yib beraman. Unda Ahmadali Asqarov milliy o'zligimizning tarixiy ildizlari haqida gapiradi.

### **Vizual kontent**

**Ahmadali Asqarov – O'zbekiston tarixiga oid muhim topilmalar haqida**

[https://youtu.be/wFMYh\\_uyvge](https://youtu.be/wFMYh_uyvge)

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, sizlarga mavzu yuzasidan bir nechta savol bilan murojaat qilmoqchiman.

Sizningcha, milliy o'zlik deganda nimalarni tushunamiz?

Biz yashayotgan muhit – tarbiya, jamiyat, millat, qadriyatlar va tarixiy xotiraning uyg'unlashuvi natijasidir. Inson o'zligini anglash jarayonida "Men kimman?", "Qanday qilib o'zligimni anglashim mumkin?", "Men qanday inson bo'lishni xohlayman?" degan savolga javob izlaydi. Shu nuqtada milliy o'zlik masalasi boshlanadi.

Chunki har bir inson nafaqat alohida shaxs, balki ma'lum bir xalqning vakili, uning tili, urf-odatlar, qadriyatlar va madaniyatining davomchisidir. Agar inson o'z milliy ildizlarini anglamasa, u go'yo ildizsiz daraxtga o'xshaydi – tashqi tomondan yashnab turgandek ko'rinsa-da, ichki jihatdan mustahkam bo'lmaydi.

O'zbek xalqining ko'hna tarixini O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov juda mohirlik bilan qasida qilib satrlarga joylagan. Keling, bu qasidadan parchani birgalikda o'qiymiz.

### **O'ZBEGIM**

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o'zbekim,

Senga tengdosh Pomir-u Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyob-u So'ylasin O'rxun xati,

Ko'hna tarix shodasida bitta marjon, o'zbekim.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini anglash, avvalo, ma'naviy borliqda – inson qadr-qimmat, sha'ni, or-nomusi va axloqiy pokligida namoyon bo'ladi. Hayotning mazmuni va maqsadini anglash o'zini tushunishdan boshlanadi.

**Interfaol mashg'ulot:** "Saqlaymizmi yoki o'zgartiramiz?" (trend)

**O‘qituvchi:** Hozir sizlar bilan tezkor va qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz. Men turli holatlarni aytaman. Siz esa “SAQLAYMIZ” yoki “YO‘Q, O‘ZGARTIRAMIZ” deb bir tomonni tanlaysiz va o‘tasiz. O‘ng tomon – SAQLAYMIZ, chap tomon – O‘ZGARTIRAMIZ. Men so‘ragan o‘quvchi nimaga bu tomonga o‘tganini qisqa izohlab beradi (30-40 soniya).

Vaziyatlar (o‘qituvchi aytadi):

1. Dabdabali to‘ylar
2. Kelin salom an‘anasi
3. Faqat o‘zbek tilida gaplashish (ijtimoiy tarmoqlarda ham)
4. Milliy kiyimlarni faqat bayramda kiyish
5. Ota-onaning kasb tanlashga aralashuvi
6. Ramazon yoki Navro‘zdagi umumiy urf-odatlar
7. Chet el madaniyatining kirib kelishi (musiqa, moda)

**O‘qituvchi:** Ko‘rdingizmi, bolalar, ba’zi narsalarni biz asrab qolamiz, ba’zilarini esa zamonga moslab o‘zgartiramiz. Bu jarayonda eng muhimi – o‘zlikni yo‘qotib qo‘ymaslik. Chunki milliy o‘zlik ham qattiq o‘zgarmas jism emas: uning bir qismi o‘zgarmay saqlanadi, yana bir qismi esa yangilanib yashaydi.

Masalan, o‘zbekona mahallalarni olaylik. U yerdagi muhit, jamoaviy ruh, ya’ni qo‘ni-qo‘shnichilik, bir-biriga mehr, hurmat – bular saqlanib qolgan qadriyatlardir. Lekin u yerda yashayotgan odamlarning turmush tarzi esa zamon bilan hamnafas o‘zgarib boryapti. Keling, shu joyda mavzuga mos videoni tomosha qilamiz.

### Vizual kontent

#### Toshkentdagi Zarqaynar mahallasida bo‘lganmisiz?

[https://youtu.be/e2\\_EtdfFg2E](https://youtu.be/e2_EtdfFg2E)

**O‘qituvchi:** Endi shu fikrni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun milliy filmlarimizga e’tibor qaratamiz. O‘zlik, qadriyat va an‘ana masalasi ayniqsa to‘ylarimizda yaqqol ko‘rinadi – unda milliylik ham bor, zamonaviylik ham. Lekin me’yor masalasida biroz muammolar bor. Ko‘rdingizmi, bizning o‘zligimiz faqat ijobiy jihatlar jamlanmasi emas, unda o‘zgartirishimiz lozim bo‘lgan jihatlar ham bor. Qani, filmlarimizda to‘ylar orqali milliy o‘zligimiz qanday ochib berilganini tomosha qilamiz – ekranga qaraymiz.

### Vizual kontent

#### O‘zbek kinosi va to‘y

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/539](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/539)



**O‘qituvchi:** Inson o‘z ildizlarini qanchalik chuqur anglab yetsa, uning Vatanga muhabbati shunchalik mustahkam bo‘ladi. Milliy mentalitet insonga u kim ekanligini doimo eslatib turadi. Begona hamda zararli g‘oyalardan himoya qiladi.

Milliy mentalitet o‘zi nima? Milliy o‘zlikka u qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Milliy mentalitet – bu xalqning odatdagi fikrlash uslubi va yashash tarzi. Ya’ni odamlar qanday gaplashadi, qanday muomala qiladi, nimani hurmat qiladi – bularning hammasi mentalitetga kiradi. Masalan, kattalarga joy berish, mehmonni yaxshi kutib olish yoki oila haqida qayg‘urish – bu bizga odatiy tuyuladi, chunki bu bizning mentalitetimiz.

Bu narsa milliy o‘zlikka shunday ta’sir qiladi: inson aynan shu odatlar orqali “men kimman?” degan savolga javob topadi. Agar odam o‘z qadriyatlarini bilsa va tushunsa, u o‘zini yo‘qotmaydi, qayerda bo‘lmasin kimligini unutmaydi. Demak, milliy mentalitet – bu bizni boshqalardan ajratib turadigan, o‘zimiz bo‘lib qolishimizga yordam beradigan ichki “kompas”dir.

Yana ham sodda qilib tushuntirsam, milliy mentalitetni “telefon sozlamalari”ga o‘xshatish mumkin. Telefoningizda qaysi til tanlangan, qanday ilovalar bor, undan qanday foydalanasiz – aynan shular uning ishlashini belgilaydi. Xuddi shunday, odamning “ichki sozlamalari” ham bo‘ladi: qanday o‘ylaydi, qaysi tilda gaplashadi, kattalarga qanday munosabatda bo‘ladi, nimani muhim deb biladi – mana shu milliy mentalitet.

Milliy o‘zlik esa – shu telefonning egasi, ya’ni siz. Tasavvur qiling, qo‘lingizga bironing telefoni tushib qoldi, uni birdaniga ishlatib keta olmaysiz, to‘g‘rimi? Agar sozlamalar o‘zimizniki bo‘lsa, telefon ham o‘zimizniki bo‘lib qoladi. Agar sozlamalar aralashib ketsa, odam ham asta-sekin o‘zini yo‘qotadi. Demak, milliy mentalitet – bu bizni “o‘zimiz” qilib turadigan ichki sozlamalardir.

Milliy mentalitetni “telefon sozlamalari”ga o‘xshatgandik. Endi tasavvur qiling: siz ijtimoiy tarmoqda sahifa ochyapsiz. Shunda o‘z ismingizdan uyalib yoki shaxsingizni yashirish uchun “nik” tanlaysiz. Shu jarayonda ko‘pchilik xorijiy nomlarni tanlaydi. Nimaga hech bo‘lmasa o‘z ismidan anagramma yoki teskari yozilishini emas, nuqul Jon, Jek, Simona, Ibn Faloncha, Bintu Pismadoncha kabi xorijiy ismlarni tanlaydi? Bu milliy o‘zlikdan uzoqlashish sababi nima?

Men profil nomi deb misol keltiryapman, ammo aslida hayotda aynan sizning yoshingizga yetganda o‘z ismini trendlarga ergashib boshqa ismlarga o‘zgartirmoqchi bo‘lganlar ko‘p uchraydi.

Asosiy savol shuki, profil nomini o‘zgartirish bilan odamning o‘zi ham o‘zgaradimi?

Aslida, o‘zbekona ism – bu shunchaki oddiy nom emas, u sizning “sozlamalaringiz” bilan bog‘langan: ma’no, ildiz, tarix. Agar siz shu ma’noni tushunsangiz, ismga boshqacha qaraysiz – u sizni cheklamaydi, balki sizni

o'zingizga va atrofdagilarga anglatadi. Keling, endi shu mavzuni yaqqolroq ko'rish uchun o'zbekona ismlar va ularga bo'lgan munosabat haqida tayyorlangan qisqa videoni tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

#### **Tariximizda ko'proq qaysi ismlar urfda bo'lgan?**

<https://youtu.be/zJBwzfh3ePg>

**O'qituvchi:** Ko'rdingizmi, ism – bu shunchaki so'z emas, u ortida ma'no va tanlov turadi. Eng muhimi, inson o'zini tushunsa, u ismiga ham, ildiziga ham boshqacha qaray boshlaydi.

Ajdodlarimiz bizga juda katta boyluk qoldirgan, ya'ni biz boy madaniyat, urf-odatlar, til va qadriyatlar merosxo'rimiz. Bugun bu merosni shunchaki saqlab qo'yish yetarli emas, uni zamonaviy usulda yashnatish kerak. Masalan, tarixiy joylarga borish, u yerlardan chiroyli “selfi” va “rilz”lar suratga olib faxr bilan tarmoqdagi sahifalarga qo'yish, milliy qadriyatlarni ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish – bu ham o'zlikni saqlashning yangi yo'li. Dunyo o'zgarayapti, demak biz ham merosimizni zamonga mos tarzda targ'ib qilishimiz kerak.

### **III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)**

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, bugun biz juda muhim mavzu haqida gaplashdik, ya'ni “Men kimman?” degan savolga javob izladik. Milliy o'zlik bu balandparvoz kitobiy gaplar emas, balki sizning kundalik hayotingizda namoyon bo'ladigan xulq-atvoringizning tagzamani, sababchisidir.

Shu sababli o'zligini anglagan inson adashmaydi. U trend ortidan ko'r-ko'rona yugurmaydi, kimgadir o'xshagan bo'lishga emas, o'ziga xos bo'lishga harakat qiladi. Biladiki, uning ildizi bor, qadriyati bor, shuning uchun u boshqalarga o'xshashga majbur emas. Eng muhimi, bunday inson o'z hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham mas'uliyatni his qiladi.

Milliy o'zlik – bu faqat o'tmish emas, bu sizning bugungi tanlovingiz. Siz qanday gapirasiz, nimani tanlaysiz, nimaga ergashasiz – mana shu narsalar sizning kim bo'lib yetishishingizni belgilaydi. Ya'ni:

#### **O'zligini anglagan odam – bu o'z yo'lini topgan odamdir.**

Bugundan boshlab hafta davomida quyidagi ishlarni qilib ko'ring:

1. O'z ismingizning ma'nosini aniqlang (ota-onangizdan yoki internetdan so'rang).
2. O'zingizga savol bering: “Men ismimga mos yashayapmanmi yoki yo'q?”

3. Hafta davomida o‘zingizni kuzating – qaysi holatlarda siz o‘zingiz bo‘lib qoldingiz, qaysi holatlarda boshqalarga taqlid qildingiz?

Aniqlaganlaringizni bir joyga yozib qo‘ying. Oradan ma’lum vaqt o‘tgach, bu qaydlarni o‘qib siz o‘zingizning hozirgi yoshingizda kim bo‘lganingiz, nimalar haqida o‘ylaganingizni qayta tahlil qilasiz. Qiziq bo‘ladi.

Bugungi darsimiz esa o‘z nihoyasiga yetdi.

Rahmat, bolalar. Bugun siz nafaqat saboq tingladingiz, balki o‘zingiz haqida o‘ylab ko‘rdingiz. Bu eng muhimi!